

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883683>

NUTQ – TAFAKKUR MAHSULI

Aytbayeva Gulchaxra Yermekbayevna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsent v.b.

Ergasheva Aqerke Baxtiyor qizi
Guliston davlat pedagogika instituti Qozoq tili va adabiyoti
yo‘nalishi 22-24-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nutq va tafakkur haqida olimlarning hamda Internet tarmoqlarida berilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Nutq – o'zaro aloqa va xabar almashinish, hamda o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish kabi vazifalarni bajarishi haqida, muloqot – bu odamlar o'rtasidagi aloqa ekanligi hamda tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g'oyalar harakati borasida fikr-mulohazalar yiriladi.

Kalit so'zlar: aloqa vositasi, tashqi nutq, lingvistik nazariya, yozma nutq, og'zaki nutq, millat madaniyati, nutq aloqasi, nutq madaniyati, nutqiy muloqot qoidalari, nutq odobi, psixik jarayon, xotira, tafakkur, tasavvur, e'tibor, fikrlash faoliyati, nutqiy tafakkur, nutq, muloqot, hodisalar qonuniyati, fikrni ifodalash motivi, ichki nutq, tafakkur.

АННОТАЦИЯ

В этой статье будет проанализирована информация о речи и мышлении, предоставленная учеными, а также в сети Интернет. Высказываются мнения о том, что речь – это взаимодействие и обмен сообщениями, а также о том, что она выполняет такие задачи, как эмоциональное выражение и воздействие на других, что общение-это общение между людьми, а мышление – это движение идей, раскрывающих суть вещей.

Ключевые слова: средство общения, внешняя речь, языковая теория, письменная речь, устная речь, культура нации, речевое общение, культура речи, правила речевого общения, речевой этикет, психический процесс, память, мышление, воображение, внимание, мыслительная деятельность, речевое мышление, речь, общение, закономерности явлений, выражение мысли мотив, внутренняя речь, мышление.

ANNOTATION

This article analyzes the information given by scientists and Internet networks about speech and thinking. Speech is about interaction and the exchange of messages, and about the performance of such tasks as expressing one's opinion with emotion and influencing others, feedback is about the fact that communication is communication between people, and thinking is the movement of ideas that reveal the essence of things.

Keywords: *means of communication, external speech, linguistic theory, written speech, oral speech, culture of the nation, speech communication, speech culture, rules of speech communication, speech etiquette, psychic process, memory, thinking, imagination, attention, thinking activity, speech thinking, Speech, Communication, Law of phenomena, motive for expressing thought, internal speech, thinking.*

KIRISH. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiylikini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega. Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya) ning tadqiqot obyekti hisoblanadi [5; 383-390].

Nutq odamlarning asosiy aloqa vositasidir. Nutqsiz odam katta hajmdagi ma'lumotni qabul qila olmaydi va uzatolmaydi [4; 757-760]. Yozma nutqsiz odam avvalgi avlodlarning odamlari qanday yashaganligi, ularning fikrlari va ishlarini bilish imkoniyatidan mahrum bo'lar edi. Aloqa vositasi sifatida – nutq tufayli insonning shaxsiy ongi, shaxsiy tajribasi bilan cheklanib qolmasdan, boshqa odamlarning tajribasi bilan boyitiladi hamda kuzatuv va nutqdan tashqari boshqa jarayonlarga qaraganda, to'g'ridan-to'g'ri bilish amalga oshiriladi, ya'ni sezgi orqali amalga oshiriladi: idrok, e'tibor, tasavvur, xotira va fikrlashga imkon beradi. Nutq orqali bir kishining psixologiyasi va tajribasi boshqa odamlar uchun mavjud bo'lib, ularni

boyitadi, rivojlanishiga hissa qo'shadi. Insoniyatda nutqning paydo bo'lishigacha, imo-ishoralardan foydalanib kelgan. Qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo'lsa, o'sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma'lumotlar ko'lami tor bo'lgani tufayli insonlar noverbal nutqdan ko'p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar [1; 272].

O'zining hayotiy ma'nosiga ko'ra nutq ko'p funktsional xususiyatga ega. Bu nafaqat aloqa vositasi, balki fikrlash vositasi, ong, xotira, ma'lumot (yozma matnlar) tashuvchisi, boshqa odamlarning xatti-harakatlarini boshqarish va shaxsning o'z xatti-harakatlarini tartibga solish vositasidir. Uning funktsiyalarining ko'pligiga ko'ra, nutq polimorfik faoliyatdir, ya'ni turli funktsional maqsadlarida turli shakllarda taqdim etiladi: tashqi, ichki, monolog, dialog, yozma, og'zaki va boshqalar. Nutqning ushbu shakllari bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, ularning hayotiy maqsadi bir xil emas. Masalan, tashqi nutq – aloqa vositasi bo'lsa, ichki nutq – fikrlash vositasi rolini o'ynaydi. Yozma nutq ko'pincha ma'lumotni yodlash usuli sifatida ishlaydi. Monolog bir tomonlama, dialog esa, ikki tomonlama ma'lumot almashish jarayoniga xizmat qiladi.

Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi. Nutq tufayli va nutq asosida borliqni umumlashgan holda mavxumiy aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib, jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin bo'ladi.

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda, uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng xarakterli ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyroq til tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatiga

ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya'ni gapirish, til belgilarining eshitish a'zolari tomonidan idrok qilinadigan artikulyatsiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi [6].

Psixologiyada nutq – fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odatda nutq tafakkur jarayonida hukmlar, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi. Shuning uchun hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar tafakkurning spesifik shakllari deb ataladi [3; 444-448].

Nutq – inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki aloqa o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni. Nutq axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish, aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iborat. Agar til aloqa vositasi bo'lsa, nutq aynan shu aloqa jarayonlarining amalga oshirilishidir. Nutq rivojlanishi davrlari quyidagicha: 2 oydan 11 oygacha, 11 oydan 19 oygacha hamda 19 oydan 3 yoshgacha.

Nutq verbal va noverbal turkumdan iborat. Noverbal nutq turli imo-ishora, mimika, pantomimika, exologik, signifikatsiya, daktilogik (barmoq nutqi) ko'rinishlarga ega. Verbal nutq og'zaki, yozma, monologik, dialogik, polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig'iq), epik (yoyiq), affektiv turlarga bo'linadi. Tilning (orfografik, fonetik, morfologik, sintaksistik, orfoepik, lingvistik, fleksiv va boshqa) qonuniyatlariga asoslangan holda mazmun-mohiyatni uzluksiz, tadrijiy ravishda axborotga aylantiruvchi nutq turi yozma nutq deyiladi. Pauza, mantiqiy urg'u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og'zaki nutq deb ataladi. Og'zaki nutq jarangdorligi, ta'sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Millat madaniyati, ma'naviyati, fan va texnikasi yutuqlari, san'ati va adabiy merosini avlodlarga yetkazib berishda, millatlararo aloqa o'rnatishda yozma nutqning ahamiyati beqiyosdir [7].

Asrimizning 20-30-yillaridan boshlab nutq, nutq madaniyati ilmiy problema sifatida jamoatchilik e'tiborini torta boshladi. 50-yillarning oxirlaridan boshlab esa nutq madaniyati tilshunoslikning o'z tekshirish ob'yektiga ega bo'lgan maxsus sohasi sifatida shakllana boshladi. Nutq madaniyatiga oid problemalarni tekshirish bo'yicha rus olimlaridan V.V.Vinogradov, E.D.Polivanov, B.A.Larin, S.I.Ojegov, V.G.Kostamarov va ayniqsa G.O.Vinokurlarning xizmatlari nihoyatda katta.

Nutq so'zining ma'nosi (arabcha) fikrni so'z orqali ifodalash deganidir. Nutq – kishi faoliyatining bir turi bo'lib, o'zaro aloqa va xabar almashinish, hamda o'z fikrini his – hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish kabi vazifalarni bajaradi.

“Nutqning shakllanishi bolaning umumiy rivojlanishining ehtimol eng muhim shartidir. Nutq – bosh miya tomonidan ta'minlanadigan muhim oliy ruhiy vazifadir va uning rivojlanishida kuzatiluvchi har qanday og'ishlarga vaqtida e'tibor berilishi lozim”. Haqiqatdan ham nutq bolaligimizdan sekin astalik bilan rivojlanib boradi. Kimdadir tez, kimdadir esa sekin astalik bilan shakllanadi. Bu ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli ham boshlang'ich sinfda o'tiladigan barcha darslarning tag zaminida nutq o'stirish jarayoni muhim o'rin egallaydi. Chunki, o'quvchilarning o'qishi, yozishi, o'z fikr mulohazalarini, tasavvur va tushunchalarini boshqalarga yetkaza olishligi ularning nutqini qay darajada rivojlanganligi bilan bog'liqdir [2; 32-33].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki nutq bu aloqa vositasi hisoblanib inson nutq orqali o'zining emotsional holatini bildirishi muloqot qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: «Barkamol fayz media», 2018. –B. 272.
2. Abulxayeva M.U. Til va nutq haqida olimlarning fikri. Экономика и социум. – №5(120)-1. 2024. – B. 32-35.
3. Aliqulova N.B. Nutq va tafakkurning shakl va xususiyanlari, masalalari. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar mavzusidagi ilmiy-amaliy Anjuman materiallari. – Chirchik, Uzbekistan. [file:///C:/Users/user/ Downloads /nutq-va-tafakkurning-shakl-va-xususiyanlari-masalalari%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/nutq-va-tafakkurning-shakl-va-xususiyanlari-masalalari%20(1).pdf). –B. 444-448.
4. Ismoilov E.M. Nutq va uning psixologik jihatlati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 |ISSUE 10. October 2022. –B. 757-760.
5. Toshboltaeva Nodira Ibroximjonovna. Tafakkur jarayonini ilmiy psixologik o'rganilishi. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) |(SJIF) = 7.502 Impact factor. Volume-11|Issue-4| 2023 Published: |22-04-2023|.– B. 383-390.
6. Wikipediya, erkin ensiklopediya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq>.
7. <https://oyina.uz/uz/teahause/2120>.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tafakkur>.
9. <https://azkurs.org/mavzu-muloqot-haqida-tushuncha-v2.html?page=4>.